



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 2-noyabr

611-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 30-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 25-oktabrdagi PQ-371-son qarori ijrosi haqida”gi 519-6-0-Q/24-son qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 25-oktabrdagi PQ-371-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 30-oktabrdagi 519-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

### QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 25-oktabrdagi PQ-371-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 30-oktabrdagi 519-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-oktabrdagi PQ-371-son qarori bilan:

2023-yil 14-sentabr Dushanbe shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvida imzolangan Markaziy Osiyoda yer usti transporti o‘zaro bog‘liqligini mustahkamlash to‘g‘risidagi Bitim tasdiqlanganligi;

Transport vazirligi ushbu xalqaro shartnomani amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan vakolatli organ etib belgilanganligi;

Tashqi ishlar vazirligi mazkur xalqaro shartnomaning kuchga kirishi uchun O‘zbekiston Respublikasi tomonidan zarur bo‘lgan davlat ichki tartib-taomillari bajarilganligi hamda uni amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan vakolatli organ to‘g‘risida Tojikiston tomoniga tegishli bildirishnoma yuborishi;

Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirlik va idoralarning rahbarlari ushbu xalqaro shartnoma kuchga kirganidan keyin belgilangan tartibda uning qoidalari amalga oshirilishi ustidan nazoratni ta‘minlashi belgilanganligi e‘tiborga olinsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshligi Sh.Umaraliyev zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**